INTERFERENSIYA VA UNING TURLARI

Rustamova Nigora Rustam qizi
Magistr, Samarqand davlat universiteti
e-mail: nigorarustamova2303@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati, u haqida olimlarning ayrim qarashlari va uning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan. Maqolada interferensiya til o‘rganish jarayonining tabiiy natijasi sifatida talqin qilingan va uning turlari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: interferensiya, sotsiolingvistika, areal lingvistika, fonetik, leksik, sintaktik, grammatik interferensiya, til va dialektlar ittifoqi.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность лингвистического явления интерференции, рассматриваются отдельные взгляды учёных по данной проблеме и причины её возникновения. Интерференция интерпретируется как естественный результат процесса изучения языка, а её виды раскрываются на конкретных примерах.

Ключевые слова: интерференция, социолингвистика, ареальная лингвистика, фонетическая, лексическая, синтаксическая, грамматическая интерференция, союз языков и диалектов.

Abstract: This article analyzes the essence of the linguistic phenomenon of interference, presents several scholars’ views on the subject, and examines the causes of its occurrence. The study interprets interference as a natural result of the language learning process and illustrates its types through specific examples.

Keywords: interference, sociolinguistics, areal linguistics, phonetic, lexical, syntactic, grammatical interference, language and dialect union.

Kirish: Bugungi kunda bir necha tillarni bilish va u tillarda bemalol muloqot qila olish hayotimizning birlamchi ehtiyojiga aylanib bormoqda. Shu tufayli dunyoda bilingvlar va polingvlarning tobora ko‘payib borayotgani tabiiy holdir. Har bir bilingv nutqida ikkinchi tilni o‘zlashtirish va uni qo‘llash jarayoni tufayli ona tiliga bo‘lgan ta’sirini yoki ona tilining o’rganayotgan tilga bo‘lgan ta’sirini bevosita kuzatamiz. Bu albatta, bilingvning so‘zlashuv jarayonida turli fonetik, leksik, grammatik muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda biz interferensiya hodisasiga murojaat qilamiz.

Muhokama: Interferensiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib inter – o‘zaro va ferens – ko‘tarish, urilish degan ma’nolarni anglatadi. Interferinsiya terminiga fizikada “to‘lqinlarning fazoda ustma-ust tushib qo‘shilgan holda bir-birini kuchaytirishi yoki susaytirishi”, biologiyada “gomologik xromosomalar bir uchastkasidagi krossingoverning boshqa qo‘shni uchastkalarda yangi krossingover paydo bo‘lishiga ta’siri”, tibbiyotda “aralash (bir necha xil virus tufayli kelib chiqqan) infeksiyada bir virusning boshqa virus ta’sirini bosib ketishi” deya ta’rif beriladi [1]. Tilshunoslikda bu hodisa qanday izohlanadi? Turli adabiyotlarda turlicha ta’riflarni kuzatishimiz mumkin:

Interferensiya – ona tiliga xos xususiyatlarni o‘rganilayotgan tilga o‘tkazish. (Bu til odatda qarindosh til bo‘lmaydi) [2]. Interferensiya – so‘zlovchi birinchi tilining keyinchalik o‘rganadigan tiliga maqsadli ta’siri. Masalan, fransuzlarning ingliz tilidagi ‘th’ tovushini [s] tarzida talaffuz qilishi [3].

Interferensiya keng ma’noda ikki tilli shaxslar nutqida yuzaga keladigan har ikki tilning me’yorlardan chetga chiqishi, tor ma’noda ikki tilli shaxsning yozma va og‘zaki nutqida ona tili ta’sirida ikkinchi til me’yorlaridan chetga chiqishi [4].

Ushbu ta’riflardan kelib chiqib, interferensiya – polinngvlar nutqida yuz beruvchi ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta’siri natijasida til birliklarining noto‘g‘ri qo‘llanishi deya izohlashimiz mumkin.

Uriel Weinreich o‘zining “Languages in contact” (O‘zaro aloqadagi tillar) asarida nutqdagi va tildagi interferensiyani farqlaydi: “Nutqda interferensiya oqim tomonidan olib ketilgan qumga o‘xshaydi; tilda bu ko‘l tubidagi cho‘kindi qumdir. Nutqda u ikki tilli so‘zlovchining boshqa tilni shaxsiy o‘rganishi, bilishi natijasida so‘zlashuvlarida yangidan paydo bo‘ladi. Tilda biz ikki tillilarning nutqida tez-tez uchraydigan, odatlanib qolgan va o‘rnatilgan interferensiyani uchratamiz. Agar X tilda so‘zlashuvchi Y tilidan ma’lum bir shaklni tabiiy holda o‘zlashtirib olmay, balki uni boshqa X tilida so‘zlashuvchilar tomonidan

qo‘llaganini eshitganligi uchun ishlatsa, bu o‘zlashtarilgan elementni tavsiflovchi nuqtayi nazardan X tilining bir qismiga aylangan deb hisoblashimiz mumkin”[5]. Masalan, bugungi kunda rus tilini to‘liq o‘zlashtirmagan o‘zbeklar nutqida ham *уже, зато, общий* kabi rus tilidagi so‘zlarning ishlatilishi odat tusiga aylangan.

Natijalar: Interferensiya tilning turli sathlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan uni bir necha turlarga ajratamiz:

a) fonetik interferensiya;
b) grammatik interferensiya;
d) leksik interferensiya;
e) sintaktik interferensiya.

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxslar tilida eng keng tarqalgan va ko‘p uchraydigan nutqiy hodisadir. Bunda ikki tilning o‘zaro ta’siri tufayli so‘zlovchi talaffuzidagi buzilishlar nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbeklarning ingliz tilidagi ‘this’ so‘zini (zis) tarzida talaffuz qilishi. Fonetik interferensiya nutq tovushlarining talaffuzi, urg‘u, intonatsiya, ritm jarayonida yuzaga chiqadi. Bunda so‘zlovchi ikkinchi tilda so‘zlayotganda ona tiliga xos ohangni, urg’uni, tovushlarni qo‘llaydi va aksent yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilida so‘z urg‘usi odatda oxirgi bo‘g‘inga tushgani tufayli rus tilidagi so‘zlarni ham shu tarzda talaffuz qilish aksentni keltirib chiqaradi.

Grammatik interferensiya tildagi grammatik shakllarni noto‘g‘ri qo‘llash tufayli kelib chiqadi. Dastlab ko‘pgina tilshunos olimlar tillarning bir-biriga grammatik, morfologik ta’sir qila olish imkoniyatiga shubha ostida qaraydilar. “Ikki tilning grammatik tizimi bir biriga o‘ta olmaydi” – deya ta’kidlaydi Meillet o‘zining “Tarixiy tilshunoslik va umumiy tilshunoslik” asarida va uning fikriga qo‘shilgan holda Sapir ham takrorlaydi: “Biz hech qayerda ba’zi yuzaki morfologik ta’sirlardan boshqasini uchratmaymiz”. Schuchardt esa bu fikrga qarshi chiqadi. Lekin Weinreich bu tortishuvlarning sababi ular o‘rtasida asosiy atamalar va tushunchalar bo‘yicha kelishuv yo’qligida deb biladi va grammatik interferensiya mavjudligini isbotlaydi [6].

Leksik interferensiya bu ikki (yoki undan ortiq) tilda so‘zlashuvchi kishilar nutqida leksik birliklarning noto‘g‘ri qo‘llanilishidir. Leksik interferensiya nutqimizning umuman boshqa ma’noga aylanib ketishi va hamsuhbatimizning noto‘g‘ri tushunishiga olib kelishi mumkin. Bu xatolar so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish, so‘zni noto‘g‘ri tanlash sababli kelib chiqadi.

Sintaktik interferensiya bu bir tilning sintaktik qoidalari boshqa tilga noo‘rin tarzda ko‘chirilishi natijasida yuzaga keladigan xatolikdir.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, interferensiya tabiiy ravishda yuzaga keluvchi hodisa bo‘lib, ikki yoki undan ortiq tillarning o‘zaro ta’siri natijasida kelib chiqadi. Bugungi kunda til o’rganish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish va nutq madaniyatini oshirishga qaratigan ishlar dolzarbdir. Shunday ekan, interferensiyani chuqur tahlil qilib, uning turlari, sabablari va bartaraf etish yo‘llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – T: Bookmany print, 2023. –148b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T: O‘zME,2002. –168 b.
3. Joan Swann, Ana Deumert, Theresa Lillis and Rajend Mesthrie. A dictionary of sociolinguistics. Edinburgh Univesity Press, 2004. –312 p.
4. Словарь социолингвистических терминов. -М, 2006. –312 с.
5. Uriel Weinreich. Languages in contact. New York, 1953. –147 p.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T: O‘zME,2005. –492 b.